BADIIY MATN VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR

Jo'ranazarova Nigora Qurbonboy qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy matnni shakllantiruvchi vositalar, matnda muallif nutqi va qahramonlar nutqi farqlari. Qahramon nutqi ichki va tashqi, dialogik va monologik nutq ko'rinishlari haqida atroflicha fikr yuritildi.Badiiy asardagio' rni ahamiyati haqida to'xtalibo' tildi.

Kalit so'zlar: muallif nutqi , qahramonlar nutqi, dialog ,monolog, .

Annotation: In this article, the means of forming an artistic text, the differences between the author's speech and the characters 'speech in the text. The protagonist's speech was considered in detail, both internally and externally, as dialogic and monologue. The role of the protagonist in the work of art was discussed. **Keywords:** author's speech, heroes' speech, dialogue, monologue.

Аннотация: В статье рассматриваются способы формирования художественного текста, отличия авторской речи от речи персонажей в тексте. Речь главного героя детально рассматривалась как внутренне, так и внешне, как диалогическая и монологичная, обсуждалась роль главного героя в произведении искусства.

Ключевые слова: авторская речь, речь героев, диалог, монолог .

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan,o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlayoladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek qat'iy mantiq, soddalik,

tushunarlilik, normativlikka qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador so'zlar ko'p qo'llaniladi. Badiiy matnni ilmiy matndan farqi shundaki, unda emotsional bo'yoqdor so'zlarga, sheva so'zlariga, tarixiy va arxaik so'zlarga, jargon va argolarga, ko'chma ma'noli so'zlarga, ma'nodosh, shakldosh,o'xshash talaffuzli va zid ma'noli so'zlarga, shuningdek ibora, maqol-matal va aforizm kabi birliklarga keng o'rin beriladi. Shunga alohida e'tibor berish kerakki, har qanday matn o'ziga xos sistemadir. Buni o'zaro bir-birini taqozo qiladigan xalqalar majmuaga o'xshatish mumkin: tovush(harf)lar → so'zlar → iboralar → gaplar → abzats → bo'lim, qism, bobla**r.**[1] Mahoratli yozuvchilar uchun mavjud tildagi so'z zaxirasisi har doim cheklangan imkoniyat hisoblanadi. Badiiy nutqda til betakror qiyofada bo'lib ,har bir ijodkorning o'z asar tili,uslubi bo'ladi.Aynan shu jihatlari bilan yozuvchilar bir-biridan farq qiladi. Badiiy matn badiiy nutq uslubida yaratiladi.

Badiiy nutq asar ichida muallif tomonidan qay tarzda hikoyalanishiga qarab yozuvchining fikrlash doirasi, yozish uslubi, falsafiy mushohadasi haqida tasavvur hosil qilamiz.Badiiy asar matnida muallif nutqi va qahramonlar nutqi farqlanadi. Qahramonlar nutqi ichki yoki tashqi, dialogik yoki monologik nutq ko'rinishlarida bo'ladi. Muallif nutqi badiiy asar tilining muhim qismi hisoblanadi. Unda qahramonlarga, voqelikka nisbatan yozuvchi munosabati ifodalangan bo'ladi. Muallif nutqi ikki xilda ifodalanadi[2]: **1. Muallif-hikoyachi nutqi.** Bunda voqealar yozuvchi tomonidan so'zlab beriladi. Peyzaj tasviri va qahramonlar qiyofasi, fe'l-atvori, ularning ruhiy holati, ma'naviy

[1] Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. -Тошкент: Фан; 1977.
[2] Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. -Тошкент: Фан; 1977.

takomili hamda ularning ongida ro'y bergan o'zgarishlar muallif-hikoyachi nutqida xolis bayon shaklida keltiriladi.Muallif-hikoyachi nutqida voqelikni tashqaridan kuzatish, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini oshkora yoki yashirin bildirish tarzi sezilib turadi. Misol uchun, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" asaridagi parchani keltirishimiz mumkin: "Og'ir urush yillari... Shu urushning kasofati butun-butun qishloqlar huvillab qolgan. Yosh-u qari barcha urushning tashvishi bilan yashaydi, ular bir oz quv, bir oz sho'x-shaddod, bir oz latifago'y, juda ham pok Orifjon ismli bola ham bor. Urush kulfatlari uning ham elkasiga tushgan."(X.To'xtaboyev)

2.**Qahramon-hikoyachi nutqi.** Ayrim asarlarda yozuvchi asar voqeasini atayin qahramonga hikoya qildiradi. Masalan, voqealar G'afur G'ulomning "Yodgor" qissasida Jo'ra tilidan, Asqad Muxtorning "Davr mening taqdirimda" romanida Ahmadjon tilidan, o'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida Rustam tilidan hikoya qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Buni yozuvchining badiiy-estetik niyati bilan bog'liq ehtiyojdan kelib chiqqan desak adashmagan bo'lamiz.Misol uchun,Xudoyberdi To'xtaboyevning"Besh bolali yigitcha asari" qahramon tilidan hikoya qilinadi:" Eshagimning o'lar-qolariga ham qaramay ketma-ket xala bosib, qamchilab uchirib ketyapman. Bu xabarni tezroq opamga etkazishim kerak otamning oldiga esa hozir borib bo'lmaydi, juda uzoqda, qirning tagida!Armiyaga olsa nima bo'pti? Hammaning otasini olgan-da, mening otamni ham olishlari aniq edi-ku!"[3]

Yozuvchi uchun o'z qahramoni haqida uning qanday ekanligini aytishdan ko'ra, qandayligini ko'rsata olish, ko'rsatganda ham personajning xatti-harakati, o'z xayollari, dunyoqarashi, atrofdagilarga bo'lgan

[3]Xudoyberdi To'xtaboyev "Besh bolali yigitcha" -«Yangi asr avlodi», 2009-yil.

munosabatida namoyon qila olish, ya'ni uni to'laligicha aks ettira olish katta yutuqdir. Qahramonlar nutqi **dialogik** yoki **monologik** nutq ko'rinishlarida bo'ladi. **Dialogik nutq** deb ikki yoki undan ortiq qahramonning o'zaro muloqotiga aytiladi. Dialogik nutqda qahramonlar tabiatini aniq ifodalash imkoniyati mavjud. **Dialogik nutq** deb ikki yoki undan ortiq qahramonning o'zaro muloqotiga aytiladi. Misol uchun, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" asaridan quyidagi misolni ko'ramiz: Shu paytda negadir juda, juda ham g'alati bo'lib ketdim. Tomog'imga iliq bir narsa tiqilgandek butun vujudim bo'shashib ketgandek bo'ldi, yig'lab yubordim.

- Ie, tentak, nega yig'laysan?.

- Ona!

- Nima gap o'zi?

- Xafa bo'lmaysizmi?

*- Nega xafa **b**o'**lar** ekanman!*

- Yig'lamayman, deb so'z bering!

- Avval ayt-chi!

- Yo'q, avval so'z bering.

- Ha, aka so'z berdim.

- Otamni... - dedim-u, yana yig'lab yubordim.

Monologik nutq badiiy asar qahramonlarining o'z- o'ziga yoki o'zgalarga qaratilgan nutqidir. Ham she'riy ham nasriy asarlarda ishlatiladi. Badiiy asarlardagi maktublar asosan **monologik yozma nutq** ko'rinishida b o'ladi (eslang: Kumushning Otabekka yozgan maktubi, yoki Otabekning Kumushga yozgan maktubi). She'riy matnlarda lirik qahramon kechinmalarini tugal tasvirlash uchun monologik nutqdan foydalaniladi. Ichki monologik nutq – "qahramonning o'z-

o'zi bilan ichdan gapirishi, fikrlashi, fikr va tuyg'ularining ichki ifodasidir. Ichki monologda qahramon o'zining sirli, yashirin fikrlarigacha aytadi, shu boisdan ichki monolog orqali qahramon kitobxon oldida o'z- o'zini ochadi. Ichki monolog so'zlashuv nutqidan o'zining ochiq va oshkoraligi bilan ajralib turadi:"Kim nima desa deyaversin. Lekin dunyoda sartaroshlikdan yaxshi kasb yo'q. o'sha har xil uylar qurib,odamlarni xursand qiladigan injenerlar ham, maza qilib she'rlaro' qiydigan shoirlar ham, qiziqchilik qilib hammani qiqirlatib kuldiradigan artistlar ham baribir egilib sartaroshga salom berishadi*."*.[4]

Parallel nutq. Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanida Miryoqubning "men" bilan suhbati dialogik nutq xarakterida lekin ifoda tarzi ichki nutq shaklida berilgan. **Parallel nutq** - qahramon ichki va tashqi nutqlarining bir vaqtning o'zida namoyon bo'lishidir. jarayonida kuzatiladi va ichki nutq bunday hollarda suhbatdoshga bo'lgan munosabatni bildiradi .

Bolalar meni nega yomon ko'rishlarini aytsam,men tufayli yo opasidan, yo otasidan dakki eshitadi:"Ahmoq, kun bo'yi ko'cha changitib o'ynaysan,Orif ***b****o'****lsa*** *ukalarini yamon o'ynatadi, uy ishlarini tinchitadi..." deb quloqlaridan cho'zishadi. Bir mahallamizdagi bolalar to'planib: "Sen ahmoqni bir suvga pishamiz", - deb o'rtaga olib qolishdi.*

- Mayli, - dedim parvoyimga ham keltirmay, o'n kundan buyon bet-qo'lmni yuvganim yo'q bahonada cho'milib olaman. (X.To'xtaboyev Orifjon va bolalar o'rtasida bo'lib o'tayotgan ushbu suhbat jarayonida Orifjonning ichki nutqi bilan tashqi nutqi parallel ravishda berib borilgan. Qahramon ichki dunyosida ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettirishda bu usuldan foydalaniladi. Badiiy asarni

[4]Xudoyberdi To'xtaboyev "Sariq devni o'limi" -«Yangi asr avlodi», 2017-yil.

shakllantiruvchi vositalarga asarda ishlatilgan iboralar,maqol va matallar,so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari,argo va jargonlar ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. -Toshkent: Fan; 1977.
2. Xudoyberdi To'xtaboyev "Besh bolali yigitcha" –"Yangi asr avlodi", 2009-yil.
3. Xudoyberdi To'xtaboyev "Sariq devnio' limi" –"Yangi asr avlodi", 2017-yil.
4. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.
5. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.
6. Xurramovna Q. G., Donaboyevna S. M. " Layli va Majnun" dostonida onomastik birliklar //INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY. – 2025. – Т. 2. – №. 5. – С. 157-158.
7. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION.* (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
8. Komilovna M. S. Hydronims Formed by the Method of Syntactic and Transonimization //World Bulletin of Social Sciences. – Т. 37. – С. 16-18.
9. Dilshoda, A., Dilfuza, T., Muxlisa, M., & Dildora, A. (2025). MAXTUMQULI SHE'RIYATIDA HAYOTIYLIK. SHOKH LIBRARY, 1(11).
10. Abdurashidovich M. A. LINGUISTIC APPROACH TO NESTED DICTIONARIES AND THEIR HISTORICAL DEVELOPMENT //Multidisciplinary and Multidimensional Journal. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С.

144-147.Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). "LISON UT-TAYR" DOSTONINING BOBLAR BO 'YICHA TASNIFI. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, *17*(02), 117-121.

11. Najibullo, S., & Manzura, B. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES [J]. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, *11*(02).
12. Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna, Abduhakimova Shahlo Shuxratjon qizi. (2026). INGLIZ TILI SINFLARIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'ZARO HAMKORLIGI NAZARLARI: DUXTAT TAHLILI. *Efiopiya xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqotlar jurnali* , *13* (03), 1266–1270.
13. Iboralarni uslublarga ajratish mezonlari: nazariy va amaliy yondashuv (frazeologik birliklar stilistik tahlili asosida). (2025). *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY*, *2*(6), 12-16.
14. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
15. Sayfullayev, N. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *10*(10), 168-170.
16. Tulkinjon, K. (2020). About historiography of historical geography of northern Bactria. *Journal of Critical Reviews*, *7*(18), 748-758.